

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА)** мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

О.Х.Ҳамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор
Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор
А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент
Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент
С.И.Иноятгов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.
М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н
М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н
Ф.Ҳ.Бобожонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н
А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)
Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)
О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,
Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири
Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси
Носиров Ш.Ў – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгардир*

**TURKISTON DAVRIY MATBUOTIDA IJTIMOYIY JARAYONLARNING
YORITILISHI**

Inoyatova Mohinur Mirzobek qiz
Buxoro davlat universiteti, 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Utayeva F.X.- Buxoro
davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

XIX-XX asrlarda aholining ijtimoiy jarayonlari haqidagi ma'lumotlar matbuot materiallarida berib borilgan bo'lib, ayniqsa xotin-qizlar masalasi haqida ko'proq ma'lumotlar berib borilgan. Bu masalalarni o'rganish mavzuning dolzarbligini oshiradi. Xotin - qizlarni davolash, ularni savodli qilish yoki erta turmushga berishni oldini olish masalalari haqidagi jarayonlar matbuot sahifalarida kam bo'lsada yoritib borilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tahlil natijalari yana shuni ko'rsatadiki, o'sha davr matbuoti sahifalarida, o'lkada 1883-yilda tashkil etilgan dastlabki shifoxona – xotin-qizlar va bolalar shifoxonasi haqida ma'lumotlar berilgan. N.N.Gundius, A.V.Poslavskaya va E.N Mandelshtam Toshkentda mahalliy ayollar uchun ambulatoriya tashkil etish tashabbusi bilan 1882- yilda Turkiston general-gubernatoriga murojaat etganlar hamda ular ushbu ambulatoriyaning birinchi shifokorlari qilib tayinlanganlar. Mazkur ambulatoriyani tashkil etish to'g'risidagi asosga ko'ra¹, shifoxonada faqat tibbiyot sohasiga ega ayollar xizmat qilishgan. Yordam so'rab murojaat qilgan ayollar va bolalarga bepul yordam ko'rsatilgan,shu jumladan, dorilar, suv muolajalari, oddiy jarrohlik va yaralarni bog'lash ishlari ham tekin amalga oshirilganligi ko'rsatib o'tilgan.

Matbuot xabarlaridan ma'lum bo'lishicha, keyinchalik Turkistonning boshqa shaharlarida ham bunday ambulatoriyalar birin-ketin tashkil etila boshlangan. Xususan 1885-yilda Samarqand shahrida bunday shifoxona vujudga kelib,u Samarqand shahri boshqarmasi tomonidan moliyalashtirilganligi aytilgan.² Dorilar esa Samarqanddagi "Zemstvo" dorixonasi tomonidan bepul berilgan.

Turkiston matbuotida 1886-yilda Xo'jandda, undan keyin Andijon, Marg'ilon, Namangan va Qo'qon kabi shaharlarda bunday shifoxonalar paydo bo'lganligi ham qayd etib o'tilgan. Mahalliy ayollar va bolalar uchun tashkil qilingan bu ambulatoriyalarning yillik hisoboti "Turkestanskije vedomosti" gazetasida e'lon qilib borilgan. Bu hisobotlar hajm jihatdan katta bo'lib gazetaning 2-3 betini egallagan hamda ko'pincha gazetaning bir nechta sonida bosilgan. Hisobotni ambulatoriya mudirasi yozib, unda ayollar va bolalarning kasalxonaga murojaati, ular o'rtasida ko'p tarqalgan kasallik sabablari, murojaat etgan ayollarning milliy tarkibi qo'rsatilgan. Masalan, Toshkentda ayollar va bolalar ambulatoriyasi mudirasi A.V.Poslavskayaning hisobotida qayd etilishicha,1885-yilda ambulatoriyaga 1749 ayol murojaat qilib, ular kasalxonaga 3812 marotaba qatnagan.

Bemorlarning milliy tarkibi quyidagicha bo'lgan: o'zbeklar va tojiklar 1674 kishi bo'lib umumiy murojaat qilganlarning 95.5% bo'lib, qozoqlar 49 nafar ya'ni taxminan 2,9% bo'lgan,tatarlar 18 nafar ya'ni, 1.02%, yahudiylar 8 nafar ya'ni, 0,4 % hisoblanganligi ko'rsatib o'tilgan³. Asosan ayollarga tibbiy yordam qo'rsatishda tug'ruq va undan keyingi davr alohida o'rin to'tgan. XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Turkistonda ayollar bolalarni uy sharoitida dunyoga keltirishgan, faqat katta shaharlarda doylar bo'lgan, qishloqlarda ayolning yaqin qarindoshlari: onasi, qaynonasi, opalari va boshqa yaqinlari tug'ruq jarayonida ishtirok etib, yordam qo'rsatganlar. Bu davrda bemorlar ahvoli faqat o'ta og'ir bo'lgandagina, ayrim hollarda istisno tariqasida shifokorlarga murojaat qilingan.Ta'kidlash joizki,bunday holatda ayol shifokorlar bilan bir qatorda erkak shifokorlar ham bemorlarga yordam qo'rsatganligini tarixiy

¹ Санобар Шодмонова. Туркистон хотин-қизларининг жамиятда тутган ўрни // Жамият ва бошқарув.2006.- №2.-Б.91-93

² Зиёев Н.Тарих-ўтмиш ва келажак кўзгуси.Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва саънат нашриёти, 2000. –Б.286.

³ Ниёзов Н.Н.Заҳарли ҳаёт // Тўла асарлар тўплами. Т.2.-Т.,1989.

hujjatlar tasdiqlaydi. Turkistonda birinchi tug'ruqxona Toshkent 1880-yilda "Mehr-muruvvat" jamiyati qoshida tashkil etilgan.

1906- yilda "Samarqand" gazetasida qayd etilishicha, Samarqand aholisini xususiy ravishda davolanishga taklif qilib, aholining kambag'al qatlamiga mansub kishilarni bepul davolashni va'da qilgan

Matbuot sahifalarida o'lkada faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari ko'rsatkichi va ularning Rossiya guberniyasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatayotgan xodimlar sonidan ancha kamligiga e'tibor qaratilgan. Turkiston matbuotidagi aholiga tibbiy yordam ko'rsatish masalalariga doir ma'lumotlardan ko'rinadiki, o'lkada tashkil etilgan shifoxonalardan ko'proq shahal aholisi foydalanar edi. Turkiston aholisining ko'pchiligini tashkil qilgan qishloq aholisi XIX asr oxiri — XX asr boshlarigacha tibbiy yordam ko'rsatish xizmatidan ancha chetda edi.

Gazetasida yozilishicha, mahalliy kishilar kasal bo'lib qolsa, shifokorga yordam so'rab murojaat etishda ikkilanishiga sabablardan biri til bilmasligi edi. Shunga qaramay, bemor ahvolini ishora bilan tushuntirar, shifokorning aytgan so'zlarini tushunmay, bergan dorisini qanday ichishni bilmay, o'z bilganlaricha ichardi¹.

XX asr boshlarida Turkiston matbuotida xotin-qizlarga ilm berishning ahamiyatiga alohida urg'u berilgan. Turkiston mahalliy ayollarining ba'zilar otinoyi qo'lida savod chiqarib, diniy ta'lim olganlar. Otinoyilar qizlarga o'z uylarida savod o'rgatib, diniy ta'limdan tashqari, she'riyatdan ham saboq berishgan. 1906 yilda "Turkiston viloyatining gazetasi" sahifalarida ta'kidlanganidek: "Agar xotun kishi tarbiyat topgan ilmlik bo'lsa, farzandini ham tarbiyat qilib taraqqiylik odami qiladur."Oyna" jurnalida ham onalar ilmi bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlangan bo'lib, unda: "Bolaga ona birinchi omil va murabbiy ekanligi qayd etiladi².

XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkiston xotin-qizlari muammolaridan biri qizlarni erta turmushga berish masalasiga ham alohida e'tibor berila boshlandi. Turkistonda bosilib chiqqan rasmiy matbuot sahifalarida ham shu masala yuzasidan maqolalar chop etilgan. Chunonchi, 1899- yilda "Turkestanskije vedomosti" gazetasida mahalliy halqlarda qizlarni juda erta, ya'ni 12-14 yoshlarida uzatlayogani tanqid qilingan. Qizlarni bunday erta uzatish tibbiy tomondan ham qonun tomondan ham maksadga muvofiq emasligi ta'kidlangan. Abdurauf Fitrat erta oila qo'rish nafaqat qizlarga balki yigitlarga ham tibbiy tomondan zarar ekanligini ta'kidlab, erkaklarga 23 va qizlarga 18 yoshdan oldin turmush qo'rmaslikni maslahat bergan.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston aholisining maishiy hayotiga kirib kelgan yangiliklar haqidagi materiallar rus tilidagi gazetalarda, rasmiy matbuotda keng yoritib borilgan. Jadid matbuotida esa mahalliy aholining mazkur yangiliklarga munosabatiga doir sanoqli maqola va xabarlar mavjud bo'lgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan aholining ijtimoiy taraqqiyotini yaxshilash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

F.K.GIRS TAFTISH HISOBOTLARIDA ZARAFSHON OKRUGINING MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI VA BOSHQARUV TIZIMINING AYRIM JIHATLARI

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim va gumanitar

fanlar fakulteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar

kafedrasi o'qituvchisi

B.G'. Rasulov

telefon:+99893995-27-85, rasulovbaxtiyor219@gmail.com

1882-1884-yillarda Imperator Aleksandr III ning buyrug'i bilan Turkiston hududini taftish qilgan senator F.K.Girs, o'lkaning barcha viloyatlari qatori, Fon Kaufman davrida

¹Жалолова А.,Ўзганбоев Х. Ўзбекистон маърифатпарварлик адабиётининг тараққиётида вақтли матбуотнинг ўрни.(“Туркистон вилоятининг газетаси”,“Тараққий”, “Самарқанд”, “Садои Туркистон” рўзномалари асосида).-Т., Фан, 1993.-Б.115.

² Пиддаев Т.Р.Ўзбекистон матбуотининг ўтмиш ва кечмиш // Ўзбекистон матбуоти.-1996.№ 2-Б 42-44

Zarafshon okrugining ma'muriy-hududiy tuzilishi, aholisi va boshqaruv tizimini o'z hisobotlarida qayd etib o'tadi. Taftish hisobotlarida keltirilishicha, Zarafshon okrugi 1868-yilda Buxoro amirligining bosib olingan bir qismi va 1870-1871-yillarda Zarafshon daryosining tog'li hududlaridagi mayda beklklarning Rossiya imperiyasiga qo'shib olinishi natijasida tashkil topgan.[1. 86-bet] Tog'li tuman bo'limi 1870-yilning aprel-iyul oylarida general Abramov tomonidan Matcha, Fan, Falgan, Magian, Yangop kabi tog'li qishloqlarning birlashuvidan tashkil topgan. [2.123-124]

Zarafshon okrugining umumiy maydoni 22,177 kv.verst yoki Turkiston o'lkasining $\frac{1}{27}$ qismini tashkil qilgan. Okrug tarkibiga kiruvchi Samarqandning maydoni 6,713 kv.verst, Kattaqo'rg'on 6,958 kv.verst, Tog'li tuman 9,506 kv.verstdan iborat bo'lib, hududning umumiy aholisi 422.840 nafar kishidan iborat edi. Shuningdek, okrugda rus millatiga mansub 2500 nafar aholi istiqomat qilgan.

Mahalliy aholini Okrug tarkibidagi hududlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, Samarqand bo'limida – 184.140, Kattaqo'rg'on – 162.200, Tog'li tumanda – 78500 kishi yashagan. Zarafshon okrugi maydoni jihatdan Rossiyaning Ufa, Orenburg kabi uyezdlari qatorida bo'lib, ahol soni bo'yicha Buzluq va Yekaterinburg uyezdlaridan uncha katta farq qilmaydi. Okrugda o'zbeklar, tojiklar, shuningdek, yahudiylar, hindlar, va ko'chirib keltirilgan ruslar istiqomat qilishgan. [1.87-bet]

Mahalliy aholi o'troq hayot kechirib, asosan, dehqonchilik, paxtachilik va ipakchilik bilan shug'ullangan. Zarafshon okrugi tarkibidagi uchta shaharda rus qo'shinlari joylashgan bo'lib, ayni paytda ushbu shaharlar ma'muriy markazlar ham hisoblangan. Yuqorida keltirilgan Samarqand, Kattaqo'rg'on va Panjikent shaharlarida, shuningdek, ularga yaqin yirik qishloqlarda aholi qishloq xo'jaligidan tashqari, xilma-xil hunarlar bilan ham mashg'ul bo'lgan. Qishloq xo'jaligi uchun qulay sharoit va hunarmanchilik sanoatining rivojlanishi tufayli aholining ko'pchiligi farovon hayot kechirganligi hisobotda keltirib o'tiladi[1.86-87]. Buning tasdig'i sifatida so'nggi uch yil davomida aholi tomonidan soliqlarning o'z vaqtida to'lanayotganligi aytiladi. 1882-yilda Zarafshon okrugi aholisi tomonidan 932.778 rubl soliqlar o'z vaqtida berilgan. Ushbu to'lovlar qo'yidagilarga bo'linadi: a) davlat g'aznasiga tushadigan yig'imlar – 597000 rubl; b) zemistvo xarakteriga yig'imlar – 104.306 rubl; c) jamoalar – 133.868 rubl; d) shaharlar – 97.604 rubl miqdorida bo'lib, ular aholi soniga taqsimlaganda 4 rubl 45 tenni tashkil qilgan [1.88-bet].

Taftish hisobotida Zarafshon okrugi tashkil etilganidan to reviziya amalga oshirilayotgan davrgacha qonuniy tasdiqlangan boshqaruv nizomi bo'lmaganligi, shu bois general-gubernator Fon Kaufman tomonidan 1868-yil 29-iyunda hududni boshqarish bo'yicha vaqtinchalik qoidalar ishlab chiqilib, imzolanganligi qayd etiladi. Bu qoida 1867-yil 11-iyuldagi Semirinch va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish tog'risidagi nizom loyihasining asosiy tamoyillari sifatida qabul qilindi [4.344]. Keyinchalik bu qoidalarga general-gubernator tomonidan qo'shimcha o'zgartirishlar kiritilishi natijasida 1867-yilgi loyihasidan sezilarli darajada o'zgartirildi. Nizom asosida mansabdor shaxslar Turkiston general-gubernatori tomonidan lavozimga tayinlangan va undan ozod qilingan. Zarafshon okrugi boshlig'i, harbiy-xalq boshqaruvi masalalarida belgilangan barcha huquq va majburiyatlardan foydalanadi hamda Semirinch va Sirdaryo viloyatlarining gubernatorlari kabi vazifalarni bajaradi. Zarafshon gubernatoriga hududdagi barcha qo'shinlar bo'ysunadi. Gubernator o'z devoni orqali qo'l ostidagi xodimlar bilan okrugni boshqargan, shuningdek general-gubernatorga hisobot bergan. Girsning taftish materiallarida keltirilishicha, o'lkani vaqtinchalik boshqaruvi qoidasida mahalliy amaldorlarni saylash tartibi okrugda qo'llanilmagan, faqatgina 1878-yildan boshlab oqsoqollarga nisbatan qo'llanilgan. Qozi, volost amaldorlari hali ham xalq tanlovi bilan emas, balki o'lka ma'muriyati tomonidan tayinlab kelingan. Shuningdek, okrug boshlig'ining sud-huquq, davlat solilarini joriy qilish va ularni yig'ish bo'yicha cheksiz huquqqa ega ekanligi taftish hisobotlarida keltirib o'tiladi. [1.88]

Aholining siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan barcha jinoyatlari harbiy sud tomonidan ko'rib chiqilib, hukm chiqarilgan. Xalqdan olinadigan soliqlar va boshqa to'lovlarni yig'ish shaxsan okrug boshlig'i tomonidan tegishli bo'lim va boshqarmalarga yuklatilgan. Zarafshon okrugi

У.Муродуллаев. ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИДА МАНҒИТЛАР СУЛОЛАСИНИНГ ЎРНИ	217
Мақсуд Бешимов. АЙНИЙ ВА МУНЗИМ.....	219
Г.Нормуродова, О НЕКОТОРЫХ ИЗМЕНЕНИЯХ В СОЦИАЛЬНОЙ СТРУКТУРЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА)	221
Feruzha Sharopova, A'zam Boltayev. BUXORO AMIRI KOLLEKSIYASINING TAVSIFI	225
Исмат Нусратиллоевич Наимов. БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚОЗИ МАНСАБИ ВА ХИЗМАТ ФАОЛИЯТИ ЙЎНАЛИШЛАРИ	228
Baxtiyorov Behruz Bobirovich. SOVET DAVRI MANBALARIDA BUXORO AMIRLIGINING BOSIB OLINISHI MASALALARINING YORITILISHI.....	232
Гулирухсор Темирова. XX АСР БОШЛАРИГА ОИД ЁЗМА МАНБАЛАРИДА БУХОРОНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ВА МАДАНИЙ ҲАЁТИ.....	234
Ғаниев Камолиддин. БУХОРО АМИРЛИГИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ҲАЁТИ ТАҲЛИЛИ (Ахмад Донишининг “Рисола, ёхуд Манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи” асари асосида)	236
Musinova Aziza Sadikovna. BUXORO KANDAKORLIK SAN'ATIDA NAQSH VA KOMPOZITSIYA	239
Inoyatova Mohinur Mirzobek qizi, Utayeva F.X. TURKISTON DAVRIY MATBUOTIDA IJTIMOIIY JARAYONLARNING YORITILISHI	243
B.G'. Rasulov. F.K.GIRS TAFTISH HISOBOTLARIDA ZARAFSHON OKRUGINING MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI VA BOSHQARUV TIZIMINING AYRIM JIHATLARI.....	244
Tal'at Halimov. BUXOROLIK SAXOVATPESHA VA XALQ HОMIYSI CHORIQLUBOY	246
G.R. Ostonova. POYI KALON ME`MORIY ANSAMBLI TARIXI.....	249
Рахимджанова Нигора. БУХОРО АМИРЛИГИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ИЛМИЙ ЭКСПЕДИЦИЯ ВА САФАРЛАР ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ-XX АСР БОШЛАРИ).....	252
Mahmuda G'oyibnazarova. BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIIY JARAYONLAR (“OYINA” JURNALI MAQOLALARI ASOSIDA).....	256
Nosirov Sherzod O'ktam o'g'li. BUXORO AMIRLIGI TARIXINI O'RGANISHDA MAHALIIY MATBUOT NASHRLARINING AHAMIYATI	259
Bobodustov Bobur Mirzoboyevich. XIX ASRNING OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA ZARAFSHON VOHASI SUV XO'JALIGIDA SARFLANGAN XARAJATLARNING TARIXIIY-MANBAVIY TAHLILI.....	261
Qilichev R.E. BUXORO AMIRLIGIDA METALLSOZLIK.....	264
Nosirov Sherzod O'ktam o'g'li. BUXORO AMIRLIGI TARIXINI YORITISHDA “TURON” GAZETASINING O'RNII.....	266
Orziyev M.Z., Zayniyev K.M. O'RTA OSIYADA INGLIZ-RUS RAQOBATINING AFG'ONISTONDAGI MIGRATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIRI	268
Parmonov Sharofiddin Shavkatovich. VASSAL BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA SHAHRISABZ BEKLIGI	271
Irgashov Xusniddin Nuridin o'g'li, Normatov Otabek Maxammatjonovich. BUXORO AMIRLIGIDA “YANGI USUL” MAKTABLARINING OCHILISHI VA ULARNING MINTAQADAGI FAOLIYATI.....	274
M.B.Misaboyeva, Normatov Otabek Maxammatjonovich. YOSH BUXOROLIKLAR HARAKATI TARIXIDAN	276
Маҳмуд Ҳамраев. АМИР ОЛИМХОННИНГ ИНГЛИЗ ҚИРОЛИГА МАКТУБИ.....	280
J.X.Arziqulov. BUXORO TADBIRKORLARINING KO'RGAZMA VA YARMARKALARDAGI ISHTIROKI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA).....	282
Bayramova Nodira. BUXORO XONLIGIDA, XAYRLI KASALLIK'' NOMINI OLGAN „RISHTA'' VA	284